

DAVAN DAVLATINING IJTIMOIIY – IQTISODIY HAYOTI

Fayzullajonova Ruhshona

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Tarix 2-kurs talabasi

ruxshonafayzullajonova@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Egamberdiyeva Nigora**

Bizning o'lkamiz qadimdan rivojlanib kelgan, bir necha yillik tarixga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shu shaharlardan biri bu - qadimgi Farg'ona davlatidir. Farg'ona haqida Xitoy yozma manbalarida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bundan tashqari Farg'ona sug'd manbalarida "Fraganik" nomi bilan ya'ni "tog'lar orasidagi vodiya, atrofi berk soylik" degan ma'noni bildiradi. "Day Yuan" esa xitoy tilidagi nom demakdir. ¹Hozirgi kunda ham ko'plab olimlarimiz Farg'ona tarixini yahshi o'rganish va yangiliklar kiritish bilan shug'illanib kelmoqdalar. Ulardan: A. Asqarov, A. Xo'jayev, B. Matboboyev, A. Anorboyev, S. Qudratov, B. Abulg'oziyeva, B. Abdullayev, Abduxoliq Abdurasul o'g'li kabilarning hissasi katta. Qadimgi Farg'ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo'lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o'ziga xos sug'orma dehqonchilik madaniyatini yaratishadi. Ilk temir va antik davrga kelib Farg'onada mahalliy madaniyatlar an'analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari butun vodiyni qamrab oladi va aholining o'troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Davan aholisi sug'orma dehqonchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'illanishgan. Ayniqsa uzumni ko'plab yetishtirib sharbatlar tayyorlangan. Bundan tashqari, ular savdoda ham yetakchilik ko'rsatib o'zlarining turli mahsulotlari bilan shuhrat qozonganlar. Milodning I—II asrlariga kelib qadimgi Farg'ona aholisining o'troq dehqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko'tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida bu davrga oid ko'p

¹ Sagdullaev. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. 256-bet.

sonli alioli manzilgohlari, qal'alar, qo'rg'onlar, ko'hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyniing turli hududlarida keng yoyilishi sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilikning markazi bo'lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunga dalil qilib qoya adirlarida chizilga 30 dan ortiq otlarning tasvirlari, Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidagi, Kat vohasi va Obishirsoydan topilgan rasmlarni aytsak bo'ladi. Farg'ona haqida Xitoy yilnomalaridan Sima Siyaning "Tarixiy xotiralar", Fan Yening "Keyingi Xannoma", Ban Guning "Ilk Xannoma" kitoblaridan ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Sima Syanning "Tarixiy xotiralar" asarida Davanning ikkita poytaxti - Ershi va Yuchen bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo'q. Ular O'zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo'qon, Koson va Axsikent o'rnida joylashtiriladi. Xitoy olimlarining bir qismi, rus va boshqa olimlar (E.Shvan) tahliliga ko'ra "Xannoma"da Ershi shahri Uchtepa va Jizzaxda deb ko'rsatiladi. Ba'zi Xitoy olimlari ya'ni Bernshtam va bir gruh olimlar qadimiy shahar qoldiqlariga asoslanib Ershi shahrini hozirgi Andijon viloyatiga qarashli Marhamat shahri yonida joylashgan Mingtepa degan fikrni ilgari surishgan.² Bundan tashqari A. Anorboevning Ershi shahri Axsikent bo'lishi kerak deb chiqargan tahmini ilgari suradi. Uning aytishicha, Axsikentdan topilgan yodgorliklar xitoy manbasidagi Ershi shahri ta'rifiga to'la mos keladi.³ Xususan, shaharning sopol quvurlar yordamida suv bilan tamirlanishini xitoyliklarning shaharni juda tez suvsiz qoldirishga imkon bergan deb aytishida asos bo'ladi.

Farg'onada davlatchilikning shakllangan davri miloddan avvalgi V-IV asrlar. Shu davrdan boshlab shaharsozlik, hunarmandchilik va boshqa sohalar ancha rivojlanadi. Xitoy manbalari qadimgi Farg'onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o'zlari uchun notanish bo'lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma'lumot bor:

² Абвухолик Абдурасул угли. Кадимги Фаргона тарихи. I-kitob. 36-37-bet.

³ A. Anorboev. O'zbek davlatchilik tarixida qadimgi Farg'ona va Axsikent. 14-19 bet.

«Xitoy elchisi urug' keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi». Davanliklarning bog'larida uzumdan tashqari anor, o'rik va boshqa mevali daraxtlar ko'p bo'lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo'lishini Davan bilan bog'lashadi. Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg'ona chorvachiligining o'ziga xos tomoni bo'lgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham ma'lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, ularni yetishtirish bilan o'troq aholi shug'ullangan. «Davanda yaxshi otlar bo'lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo'lmaydilar». Davanning mashhur «samoviy otlari» tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Qadimgi Farg'ona podshosi Van deb atalgan. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo'lgan Motsay, Chan Fin, Mugkua, Yanlyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan⁴. Davlat boshqaruvida asosan oqsoqollar kengashi muhim o'ringa ega edi. Ular asosan davlat ishlariga aralashish bilan birga hukmdorlar faoliyatini ham kuzatib, nazorat qilib borishgan. Hattoki ularning oldida hukmdor vakolati ham cheklangan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etishgan, ba'zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilishgan. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan. Manbalarning ma'lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar - bitta katta yordamchi (Fu-van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van) tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Farg'ona – Xitoy munosabatlari qachon boshlanganligi haqida ma'lumotlarga ega emasmiz. Bu munosabatlar juda qadimdan boshlangan bo'lishi mumkin. Farg'ona Xitoy munosabatlarining qadimdan boshlanganligiga asos qilib Xitoyning shimoliy o'lkalariga borib kelganliklari uchun miloddan avvalgi II asrda

⁴ Sagdullaev. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. 259-bet.

mazkur joyga oid ma'lumotlarga ega bo'lganlar. Lekin bu ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Xitoy manbalaridan “Xannomada” shunday deyilgan: “Farg’ona viloyati markazi Guyshan, bu joyda Chang anga 12550 li, aholisini 60 ming oila, 300 ming kishi, lashkarlikka yaraydigan 60 ming nafar, bir nafar noibxon, bir yordamchi xoni bor”.⁵ Farg’ona Xitoy munosabatlarida Xan sulolasining Farg’onaga harbiy yurishi Xitoy tarixida katta ahamiyatgaga ega. Manbalarga ko’ra Xan sulolasi Farg’onaga ikki marota yurish qilgan (miloddan avvalgi 104-102-yillar) oqibatida “Farg’ona tulporlariga” ega bo’lganligi haqida aytib o’tilgan. Bu urushning boshlanishiga sabab Farg’onaliklar tomonida Xitoy fuqarosi She Linning o’ldirilishi bo’ladi. Xitoy bosh qo’mondani etib Li Guangli tayinlangan. Bu yurishda Xitoyliklar qarshilikka uchrab miloddan avvalgi 102-yilga ortga qaytib ketishgan. Udining farmoni bilan orqaga qaytib bir yilgan so’ng ya’ni miloddan avvalgi 101-yilda 60 ming kishilik qo’shin bilan Farg’onaga ikkinchi marta yurish qilishadi. Ular urushga tayyorgarlik ko’rgan holda kelishadi. 60 ming kishilik qo’shin, oziq-ovqat va qurol-yaroq bundan tashqari urushda yana 130 ming kishi jalb etilgan. Birinchi jangdayoq Xitoyliklarning qo’li baland kelib Davanliklar tarqalib ketadi. Davanliklar jang qilishdan qo’rqib maydamayda gruhlarga bo’linib yashirinishga majbur bo’lganlar. Xitoyliklar shaharga bostirib kitib Ershi shahrini qamal qilishadi. Bu qamal 40 kungacha davom etgan dushman devorni buzib, shaharni egallagan. Shundan so’ng Davan oqsoqollari o’z vakillarini yuborib o’zlarining talablarini aytishadi. Agar qo’shin xarbiy harakatlarni to’xtatsa Davan hukumdori Muguani o’ldirilishi, bir nechta samoviy otlar va oziq-ovqat berilishi kelishiladi. Xitoylik rad javob bersalar Davanliklarga Qang’ qo’shinlari yordamga kelishi aytiladi. Xitoyliklar bundan cho’chib ularning shartlariga rozi bo’lishadi.

Miloddan avvalgi 138 yilda Xitoy imperatori Udi Chjan Syanni davlat xavfsizligiga daxl qilayotgan xunlarga qarshi ittifoqchi topish uchun elchi qilib Farg’ona vodiysiga jo’natadi. Yo’lda u hunnlar qo’liga asir tushadi va u yerda 13 yil

⁵ Noibxon – Fu-vang, xonning o’rinbosari, vaziri.

davomida yashashga majbur bo'ladi⁶. U tutqunlikdan qochishga muyassar bo'ladi hamda Tyan-Shanning baland dovonlaridan o'tib, Issiq ko'lga, so'ngra Norin daryosi bo'lab Farg'ona vodiysiga etib kelishga musharraf bo'ladi. Yana bir manbada esa Chjan Syan haqida shunday deyilgan Xitoyning Xan sulolasi ham hunlarga qarshi kurash olib bormoqda edi. Chjan Syan g'arb safarida unga hun yo'l boshlovchisi Tani Xunuganfuga hamkorlik qilgan. Biroq yo'lda u hunnular tomonidan qo'lga olinib ularning hukmdori huzuriga keltirilgan. Chjan Syanni hunnu qizga uylantirganlar, undan bir o'g'il farzand kurgan. Lekin qulay fursat kelishi bilan u hamrohlari bilan asirlikdan qochib, sayohatini davom ettirgan. U qadimgi Fargona – Davanga kelgan. Chjan Syan avval Farg'ona viloyatida Tarim havzasining g'arbida joylashgan Davanga tashrif buyurdi. Bu yerdagi tulporlar juda mashhur bo'lgan. Chjan Syanning ta'kidlashicha, Davan Xan imperiyasi poytaxtidan to'g'ridan-to'g'ri g'arbda emas, balki shimoli-g'arbiy tomonda joylashgan deydi. Chjan Syan Davandan Kangyuyga (Qang davlati) o'tgan, so'ng janubga Daxya (Baqtriya)ga borgan. U yerda bir yil turib orqaga qaytgan, lekin yo'lda yana hunnular qo'lga tushib qolgan. Biroq 1 yildan keyin, hunnular o'rdasidagi ichki nizolardan foydalanib Xitoyga qochib borishga muvaffaq bo'lgan. Uning g'arbiy o'lkalarga qilgan 1 sayohati 13 yil davom etgan. U bilan yo'lga chiqqan 100 ta hamrohidan atigi 2 kishi o'zi va yo'l boshlovchisi sog'-salomat qaytib kelishgan. Xitoyga qaytib kelgach, Chjan Syan imperatorga batafsil hisobot tayyorlagan. O'z hisobotida O'rta Osiyodagi davlatlar, mulklar Davan, Usun, Kangyuy, Daxya, Yansay, Katta Yuyechji va boshqa haqida ma'lumot keltirgan. Chjan Syanning ma'lumotlaridan mamnun bo'lgan Udi uni lashkarboshi etib tayinlaydi. Lekin miloddan avvalgi 121-yilda hunlarga qarshi yurishda vaqtida yetib kela olmagangi sababgan podsho uni o'lim jazosiga mahkum etadi. U pul to'plab o'limdan qutilib qoladi⁷. Yana o'z mavqeini tiklash niyatida yana sayohatga o'tlanadi. Bu sayohati Usun yurtiga bo'ldi, negaki birinchi sayohatida bu yurt haqida turli afsonalar eshitgan edi. Uning asosiy rejasi Usun yurtini hunlardan tortib olingan

⁶ Абвухолик Абдурасул угли. Кадимги Фаргона тарихи 20-бет.

⁷ Si Machyan. Tarixiy xotiralar kitobidan. 449-bet.

yerlarga ko'chirtirishga ko'ndirish kerak edi. Miloddan avvalgi 119-yilda Chjan Syan 300 kishidan tarkib topgan kata karvonga bosh bo'lib, yo'lga chiqadi. Bu karvoga turli-xil mahsulotlar, oltin-kumush, shoyi atlaslar, safar qatnashchilariga esa oziq-ovqatlari uchun o'n mingdan ortiq sigir, quy va boshqa mahsulotlar beriladi. Chjan Syan Farg'ona, Qanqa va Usun yurtlariga yuborilgan karvonga shaxsan o'zi bosh bo'ladi. U Hindiston va Arabistongacha bo'lgan joylarda ko'p mollar bilan yaxshi ta'minlangan maxsus elchilar yuboradi.⁸ Natijada Farg'ona haqida boy ma'lumotlar olib keladi. Manbalarda keltirilishicha karvon yo'lda hunlar va boshqa xonliklar tomonidan qarshiliklarga uchramaydi. Ular katta mol-dunyo bilan ketayotganlari uchun ularni elchi emas balki, savdo karvoni deb o'ylashadi. Karvon Usun yurtiga yetib borganidan so'ng Chjan Syan katta e'tibor bilan kutib olinadi. U elchi tomonidan keltirilgan sovg'alarni Xitoyga hurmad yuzasidan o'rnidan turib qabul qiladi.⁹ Ammo u Chjan Syanning taklifini qabul qilmaydi. O'z yurtidagi kelishmovchiliklarni baxona qilib, hunlardan tortib olingan yerlarga ko'chib borishdan bosh tortadi. Karvon bilan birga o'g'li boshchiligidagi karvon yuboradi. Bu karvon Buyuk Xitoy devoriga yaqinlashganida uni ko'rganlar malla sochli odamlarni (usunlarni) ko'rib hayratga tushadilar. Xususan Usunlarning xoqonga olib kelayotgan otlarni ko'rib havas qilishadi. Bu otlarni "Usun otlari" o'zining chiroyli basti bilan karvonda boshqa otlar orasida ajralib turar edi. Xitoy xoqoniga esa bu otlar juda yoqib qoladi. Shu bilan birga olib kelingan beda urug'i va uzumlarini katta maydonga ektiradi. Bedazorlarda otlarni alohida ko'ngil berib boqadi. Chjan Syan imperator saroyiga yuborgan hisobotida bu mamlakatni Dayyuan deb ataydi va uning aholisi juda xushmomila, mehmondo'st, ko'ngli ochiq, odamlar ekanligi, ular arpa, bug'doy, sholi, beda, momiq(paxta) ekib yuqori hosil olishini yozadi. Chjan Syan Dayyuanda bo'lganda "samoviy tulporlar"ga alohida e'tibor bergan. Uning ta'riflashicha bunday otlarga go'yoki qon terlaydi. Chjan Syanning tashabbusi bilan imperator saroyiga har yili ikkitadan arg'umoq ot yuborib turish uchun Dayyuan podshosi Chanfin bilan

⁸ Ван Гу. Чжан Сян. Ханномасидан 452-бет.

⁹ Абвухолик Абдурасул угли. Кадимги Фаргона тарихи 26-27-бет

shartnoma tuziladi. Xitoy tarixidagi bir ruivoyatga ko'ra " Samoviy tulpor"larni ko'rgan Xitoy imperatori Udi (mil.avv. 147-87 yil) mashhur Xitoy podshosi Muvong (mil.avv. 1001-947 yil) kabi tulpor otlarga minib G'arbga sayohat qilishni orzu qiladi. Orzuga yetish ishtiyoqida imperator Udi fol ochtirganda folbin: " Xosiyatli otlar kunbotar tomondan keladi", deb aytganmish. ¹⁰Udining Xitoy manbalaridagi Muvong qilgan ishlarga qiziqishi bejiz emas edi. Chunki Muvong Xitoy tarixida ko'p g'aroyib ishlari bilan mashhur ulug' inson sifatida tasvirlanadi. Rivoyatlarda u Mutayzi nomi bilan 8 ta tulpor qo'shilgan soyabonli aravada g'arbga sayohat qilib avliyo ona Shevangmu huzurida mehmon bo'lgan. Xitoy tadqiqotchilari tahliliga ko'ra, Shevangmu shimoliy Hindiston va janubiy Turkiston zaminida 4-5 ming yillar muqaddam (Hindistonda " Uma", Turkistonda "Umay" nomi bilan) boqiy hayot ramzi ilohiylashgan ona obrazi sifatida tasvirlanadi. Umay onani ziyorat qilish uchun "tulpor otlar" yordamida qushday uchub, bulutlarni yorib o'tib ming chaqirim yo'llar bosib, u (Umay ona) turgan manzilga yetib borishi mumkin edi". Xitoy va Farg'ona o'rtasida olib borilgan turli xil savdo-sotiq ishlarida asosiy zamin bo'lgan Buyuk Ipak yo'li mol ayirboshlashda qulay bo'lgan. Bu yo'lda joylashgan shaharlarda rivojlanish ham o'z navbatida kuchli bo'lgan.

Xulosa:

Qadimgi Davan davlati o'zining "Samoviy otlari" bilan butun mamlakatda mashhur bo'lgan. Davan davlatining Ipak yo'lida joylashganligi sababdan bu shahar yanada rivojlanib borgan. O'zing davlat tuzumiga ega ekanligi, dini va urf-odatlarini, qadriyatlarini bo'lganligi bilan ham Davan o'z davrining mashhur shaharlaridan edi.

Adabiyotlar:

A. S. Sagdullaev Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent. 2004.

Абвухолик Абдурасул угли. Кадимги Фаргона тарихи. I-kitob. – Тошкент. 2002.

И. К Косимов Кадимги Фаргона сирлари. - Наманган. 1992.

Ахмадали Аскарлов. Узбек халкининг келиб чиқиш тарихи. -Тошкент. 2015.

¹⁰ Абвухолик Абдурасул угли. Кадимги Фаргона тарихи.

Аблат Хужаев. Фаргона тарихига оид маълумотлар – Фаргона. 2013.